# BUXORO IJROCHILIK USLUBI O'SMIR-O'QUVCHILAR AXLOQIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH OMILI

**M.A.Samieva**
Bux.DU o'qituvchisi

Umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslari jarayonida o'quvchilarning axloqiy sifatlarini rivojlantirish bu uzoq muddatli tizimlashtirilgan va aniq rejaga asoslangan uzluksiz musiqiy - pedagogik faoliyatni talab etadi.

Bizning tadqiqotimiz ob'ekti sifatida tanlangan kichik yoshdagi o'smir-o'quvchilarning musiqiy idrok, tafakkur va badiiy-estetik didi hali unchalik asosli fikr yuritish darajasida bo'lmaydi.

O'quvchilarning musiqiy tayyorgarlik darajasi, albatta boshlang'ich sinflarda musiqa madaniyati mashg'ulotlarining qay darajada o'tilganiga bog'liq. Shu sababli ayrim sinflarda o'quvchilarning musiqani idrok etish, tinglash, kuylash ko'nikma va malakalarini barqaror tenglashgan darajaga olib kelish o'qituvchilardan anchagina mehnat hamda sa'y-harakatni talab etadi.

Bu jarayonda o'quvchilar musiqiy-badiiy didlari hali mavhum darajada bo'ladi. Ularga berilgan birinchi savollardanoq bunga ishonch hosil qilish mumkin. Masalan, o'quvchilarni musiqa san'atiga qiziqishi va munosabatini aniqlash maqsadidagi "Sen "Mavrigi va "Buxorcha" turkumlari haqida nimalarni bilasan?", "Sen "Mavrigi" turkumidan qanday bolalar qo'shiqlarini k u y l a g a n s a n ?", "Sen "Buxorcha" musiqiy turkumidan qaysi qo'shiqni kuylashni yoqtirasan?", kabi savollarga tayinli javob olish qiyin bo'ladi. O'quvchi bu savollarga qanday javob berishni ham bilmay dovdirab qolishi, yoki javoblar noaniq va palapartish bo'ladi.

O'qituvchi tomonidan bolalarga qulaylik tug'dirish uchun qo'shiq, kuylarning nomlari aytilgandagina, ular bu qo'shiq yoki kuylarni eshitganligini, o'ziga tanishligini va ayrimlarini yaxshi ko'rishini aytishadi.

Ayrim o'quvchilar esa qo'shiqlardan bir kupletlarini xirgoyi qilib berishlari ham mumkin. Bular o'quvchilarni turli darajadagi musiqiy tayyorgarliklari, qiziqish va qobiliyatlari bilan ham bog'liq bo'ladi. O'qituvchi "Buxoro ijrochilik uslubiga xos qo'shiqni kuylab bergandan so'ng "Bu qo'shiq sizlarga yoqadimi?" degan savolga so'zsiz "ha, yoqadi" degan javobni b e r i s h a d i . Bu esa ularning hali mazkur janrga xos bo'lgan qo'shiqni munosib b a h o l a s h q o b i l i y a t i shakllanmaganligidan d a l o l a t b e r a d i . Shuning uchun o'qituvchi bolalarni musiqiy asarlar, jumladan, "Buxorcha" va "Mavrigi"lardan ma'lum frazalarini kuylash, u haqda o'z fikrlarini bildirishga o'rgatar ekan, ularga eng avvalo a s a r t o ' g ' r i s i d a o'z fikr va badiiy tassurotlarini bayon qilishlariga, javoblarida xatolik bo'lsa to'g'rilash va shunga ko'ra ularda a s a r h a q i d a to'g'ri tushunchani hosil qilishga erishish muhimligini tushuntirib borishi lozim.

O'qituvchi "Buxoro ijrochilik uslublariga xos ashula va qo'shiqlardan namunalar eshittirishi va sinfga murojaat qilib kimga qaysi asar yoqqanini va nima uchun ma'qul bo'lganligini ochiq aytishlarini so'raydi. Bunda har bir o'quvchi o'ziga yoqqan asarni tanlab nomini aytadi. Bu kichik o'smir yoshidagi o'quvchilar uchun juda muhim. Binobarin, beshinchi, oltinchi, yettinchi sinflarda esa asarning m a ' q u l b o ' l g a n l i g i sababini izohlab, tushuntirib berishlariga erishish kuzatiladi va borgan sari bu jarayonni murakkablashtirib borish talab etiladi.

Beshinchi, oltinchi sinflarda o'quvchilar kuylash va tinglash uchun tavsiya etilgan asarlarning g'oyaviy-badiiy mazmunini, ijodiyotning qaysi turiga mansubligini, matn mazmuni



© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

haqida ham so‘zlab bera oladigan bo‘ladilar.

Shunisi muhimki, o‘rganiladigan asarni musiqiy-badiiy tahlil qilish – o‘quvchilarda axloqiy sifatlarni tarbiyalashda muhim vosita bo‘lib xizmat qilishini ta’minlash o‘qituvchi faoliyatining asosini tashkil etishi kerak. Shundagina bunday asarlar o‘quvchilar yodida mustahkam saqlanib qoladi.

Bizning mazkur tadqiqot doirasidagi kuzatuvlarimiz va ko‘plab pedagog olimlar, metodist o‘qituvchilar tajribalari shuni ko‘rsatadiki, ayrim kichik hajmdagi murakkabliklarni yengib o‘tish o‘smir yoshdagi o‘quvchilar uchun ham unchalik qiyinchilik tug‘dirmaydi. Ritmik xilma-xilliklar, interval kuylanishidagi qiyinchiliklar, dinamik murakkabliklar, kuy va qo‘shiqning yoqimli ohanglari orasida o‘z yechimini topib ketishi mumkin ekan.

Qo‘shiq kuylash, jamoaviy aytim - bolalar uchun eng sevimli va qulay musiqiy faoliyat hisoblanadi. Dars jarayonidan barcha faoliyat turlarini olib tashlaganda ham qo‘shiq kuylash o‘quvchilarni zeriktirmaydi. Ammo, o‘smir o‘quvchilar ma’lum bir faoliyatda kuylash yoki tinglash bilan shug‘ullanganlarida tezda zerikib, charchab qolishlari mumkin. Shuning uchun ham darslarning qiziqarli va unumli bo‘lishi uchun dars jarayonida faoloyatning xilma-xil turlaridan foydalaniladi.

Xalqimizning milliy qadriyatlarini yoshlar ongiga singdirishda keng imkoniyatlar yaratilgan bugungi kunda xalq qo‘shiqlaridan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Musiqa darslarida xalq qo‘shiqlari, mahalliy ijrochilik uslublariga xos bo‘lgan ashula va qo‘shiqlar vositasida o‘quvchilarning axloqiy sifatlarini tarbiyalash hozirgi kunda nihoyatda dolzarb muammolardan biridir. Ayniqsa, axloqiy sifatlarni rivojlantirish borasida mahalliy xalq qo‘shiqlarining imkoniyatlaridan ta’lim jarayonida unumli foydalanish yuzasidan ilmiy-uslubiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish zarurati sezilmoqda.

Xalq qo‘shiqlari vositasida o‘quvchilarning axloqiy sifatlarini tarbiyalashda mahalliy ijrochilik uslubiga xos asarlar katta tarbiyaviy imkoniyatlarga ega. Zero, bu q qo‘shiqlarda xalqning ezgu niyatlari, orzu istaklari va ichki tuyg‘ulari, uning urf-odatlari h amda an’analari bilan bevosita bog‘langandir.

Musiqa darslarida o‘smir-o‘quvchilarning axloqiy sifatlarini tarbiyalash maqsadining o‘ziga xosligi shundaki, darsda musiqa ta’limi va tarbiyasi vazifalaridan tashqari badiiy- ijrochilik vazifalari ham qo‘yiladi. Bu gaplar birinchi navbatda maktabda musiqadan ta’lim berishning eng faol shakli bo‘lgan jamoa bo‘lib qo‘shiq kuylashga taaluqlidir. Juda qadimiy ildizi va ijrochilik an’analariga ega bo‘lgan xalq qo‘shiqchiligida ko‘pchilik bo‘lib qo‘shiq kuylash faqat musiqiy qobiliyatlarni emas, balki xarakter sifatini, dunyoqarashni, musiqiy idrokni, badiiy didni, estetik tuyg‘uni ham rivojlantiradi.

O‘quvchilarda sodir bo‘layotgan his-hayajonlarni ongli bo‘lishiga harakat qilish, ularni mustaqil fikrlashga, baholashga o‘rgatish va buning uchun mavjud imkoniyatlardan to‘la foydalanish asosiy omil bo‘ladi. Masalan, o‘qituvchi o‘quvchilarni mahalliy ijro uslublariga xos ma’lum bir qo‘shiq bilan tanishtirishi va o‘rgatishda “ Bu qo‘shiqni birinchi marta qachon va qaerda eshitgansiz?”, “Bu qo‘shiq sizga nima uchun yoqib qoldi?”, “Bu qo‘shiqni qanday ijro etish kerak?”, “Qo‘shiqni so‘zlari musiqa ohangiga to‘g‘ri kelyaptimi?”, “Qo‘shiqni yaxshi, mazmunli ijro etish uchun nimalarga e’tibor berish kerak?” kabi savollar bilan o‘quvchilarni yanada diqqat bilan tinglashga, ilgari e’tibor bermagan ayrim jihatlarini payqab olishiga, mustaqil fikr yuritish va ma’lum darajada baholashga odatlantirib boradi. O‘quvchilarda badiiy didni asta- sekin o‘sishi va axloqiy sifatlarining shakllanishi uchun yetarli zamin shu tariqa yaratiladi.



© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

O‘quvchilar o‘zlari kuylayotgan, tinglayotgan kuy va qo‘shiqlarni tahlil qilish jarayonida quyidagilarga e’tibor qaratishlari maqsadga muvofiq:

1. Lad (parda- tuzuk) va tonallik, asar qaysi bosqichdan boshlanadi;
2. Kuyning emotsional tuzilishi, xususiyatlari (harakat, yo‘nalish, qismlari, notalar nomi, interval sakrashlari;
3. Kuy va qo‘shiqning ritmik tuzilishi, xususiyatlari. Asarda qanday cho‘zimlar uchraydi, pauzalar borligi, asar taktning qaysi hissasidan boshlanishini aniqlash;
4. Asardagi musiqiy iborani va nafas olishni aniqlash;
5. Asarning ijrosiga mansubligiga ko‘ra janr xususiyatlarini aniqlash.

Xulosa o‘rnida ta’kidlab o‘tish o‘rinliki,mahalliy ijrochilik uslubiga xos kuy va qo‘shiqlarning mazmunini tushunish, uni idrok qilish tinglovchining umumiy madaniyatiga, shuningdek, uning maxsus tayyorgarlikka egaligiga bog‘liq bo‘lib, musiqani tushunadigan o‘quvchining musiqa asarlariga qiziqish doirasi, badiiy didning yuqori darajada namoyon bo‘lishi bilan ajralib turadi. Musiqiy turkum kuy-qo‘shiqlarning mazmun-mohiyatini anglash va tushunish atrofdagi hayotni to‘la-to‘kis idrok qilish uchun zarurdir, bu qobiliyat maktab o‘quvchisi shaxsining har tomonlama rivojlanishiga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Samieva M. BUKHARA PERFORMANCE METHOD A FACTOR FOR DEVELOPING THE MORAL QUALITIES OF ADOLESCENT STUDENTS //" ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. – 2022. – С. 191-194.
2. Samiyeva M. A., Ramazonov A. V. O ‘ZBEK MUMTOZ MUSIQASI-O’QUVCHILAR QIZIQISHINI SHAKLLANTIRISH OMILI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 31-36.
3. Azimovna S. M. et al. THE BUKHARA PERFORMANCE STYLE IS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF MORAL QUALITIES OF TEENAGERS //Zeta Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 04. – С. 1067-1071.
4. Мустафоев Б. И., Самиева М. А. БУХАРСКИЕ ДРЕВНИЕ МУЗЫКАЛЬНЫЕ ГРУППЫ-СРЕДСТВО ОБРАЗОВАНИЯ //European Science. – 2021. – №. 2. – С. 26-28.
5. Ortiqov, E. . (2023). Musiqa Madaniyati Ta’limida Musiqiy Savodxonlik Faoliyatinin Tutgan O‘Rni. International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses, 106–112. Retrieved from https://conferenceseries.info/index.php/ICMRITA/article/view/835
6. Артыкова, Э. ., & Рузиева, З. (2022). ВЕЛИКОЕ БЛАГОСЛОВЕНИЕ – ПЕСНЯ ШАШМАКОМ. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 1(2), 22–24. извлечено от https://www.in-academy.uz/index.php/cajei/article/view/6459
7. E Ortikov.Historical Analysis of National Musical Heritage and Moral-Aesthetic Education in Music and Art Schools of Uzbekistan . 2023/8/20 Academic Journal Publisher http://dspace.umsida.ac.id/handle/123456789/5948
8. Mustafoyev B. TA’LIM ISLOHOTLARI MAZMUNIDA YOSH AVLOD MUSIQA MADANIYATI TARBIYASI //TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 60-66.



© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

9. Mustafaev B. FROM THE HISTORY OF MUSIC EDUCATION AND PEDAGOGICAL SYSTEM ACTIVITY IN UZBEKISTAN IN THE 1950s-1970s //Academia Science Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 04. – С. 1007-1012
10. Мустафаев Б. “БУХОРЧА” ВА “МАВРИГИ” МУСИҚИЙ ТУРКУМЛАРИ ТАДҚИҚОТЛАРИНИНГ ТАРИХИЙ, МАЪНАВИЙ–МАЪРИФИЙ АҲАМИЯТИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 23. – №. 23.
11. Мустафаев Б. БАРКАМОЛ АВЛОД МУСИКА МАДАНИЯТИНИ ТАРБИЯЛАШДА ИСЛОҲОТЛАРНИН АҲАМИЯТИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 23. – №. 23..
12. Мустафаев Б. БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА МУСИҚИЙ САВОДХОНЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЖАРАЁНИДА МАНТИҚИЙ ФИКРЛАШ ВА БАҲОЛАШГА ЎРГАТИШ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 23. – №. 23..
13. Мустафаев Б. УМУМИЙ ЎРТА ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА МУСИҚИЙ ТАЪЛИМ ИСЛОҲОТИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 23. – №. 23.



© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.